

**Bekberganov Javohir Erkinboy o‘g‘li**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

*San’atshunoslik va amaliy san’at fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Ushbu maqolada** O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy an’analar va zamonaviy badiiy yo‘nalishlarning uyg‘unlashuvi masalasi ko‘rib chiqiladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan to bugungi kungacha bo‘lgan davr mobaynida o‘zbek tasviriy san’atining shakllanish bosqichlari hamda milliy naqsh va ornamentlarning zamonaviy kompozitsiyalarga integratsiyalashuvi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy motivlarning zamonaviy badiiy tilda qayta talqin etilishi milliy san’atning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** *tasviriy san’at, milliy an’ana, zamonaviylik, o‘zbek rassomchiligi, ornament, naqsh, badiiy sintez, madaniy identitet, globallashuv.*

**Abstract:** This article examines the harmonization of national traditions and contemporary artistic directions in Uzbekistan’s fine arts. It analyzes the stages of development of Uzbek visual arts from the late 19th century to the present day, with particular attention to the integration of national patterns and ornamental systems into modern artistic compositions. The research results demonstrate that the reinterpretation of traditional motifs within a modern artistic language is one of the key factors enhancing the competitiveness of national art in the international arena.

**Keywords:** *fine arts, national tradition, modernity, Uzbek painting, ornament, pattern, artistic synthesis, cultural identity, globalization.*

---

Globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan bugungi kunda milliy madaniy identitetni saqlash va uni zamonaviy dunyoning yangi talablariga moslashtirib rivojlantirish har bir xalq madaniyati oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston tasviriy san’ati bu jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki u ikki muhim vazifani an’anaviy milliy qadriyatlarni asrash hamda jahon san’ati oqimlariga integratsiyalashish zaruratini o‘zida mujassam etadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ya’ni 1991-yildan keyingi davrda milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Tasviriy san’at sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Sovet davri mafkuraviy cheklovlaridan xalos bo‘lgan rassomlar o‘z ijodiy qarashlarini erkin va yangicha ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Kamola Oqilova (2023-yil) ta’kidlaganidek, 1991-yildan bugungi kungacha tasviriy san’atda turli badiiy oqimlar kengayib, rang-barang ijodiy manzara shakllandi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi bir necha muhim omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, Samarqand shahrining 2022-yilda UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog'iga qo'shilishi mamlakatning madaniy diplomatiya sohasidagi faolligini oshirib, milliy san'atga bo'lgan xalqaro e'tiborni kuchaytirdi. Ikkinchidan, Toshkentda 2025-yilda Zamonaviy san'at markazi (CCA)ning ochilishi Markaziy Osiyoda zamonaviy san'at institutsional tizimini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Uchinchidan, yoshlar orasida milliy an'analarga bo'lgan qiziqishning ortib borishi yangi ijodkor avlod shakllanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Avvalo, O'zbekiston tasviriy san'atida an'ana va zamonaviylik rivojlanishining uch bosqichli tasnifi ilk bor tizimli ravishda taklif etiladi:

- a) *Yevropa ta'siri va mahalliy an'analar tutashuvi bosqichi (XIX asr oxiri 1991-yil),*
- b) *milliy qayta tiklanish va izlanishlar bosqichi (1991–2010-yillar),*
- d) *global integratsiya va raqamli transformatsiya bosqichi (2010-yildan hozirgi kungacha).*

Shuningdek, amalda faoliyat yuritayotgan o'zbek rassomlarining tasdiqlangan ma'lumotlari asosida milliy an'ana va zamonaviylik uyg'unlashuvining turli shakllari tasniflanadi. Bundan tashqari, o'zbek rassomlarining badiiy asarlari xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, mazkur jarayonda mahalliy va xalqaro ilmiy manbalardan keng foydalaniladi. Nihoyat, o'zbek rassomlari ijodining xalqaro maydonda e'tirof etilishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

O'zbek tasviriy san'atini o'rganish borasida bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. San'atshunoslik fanlari doktori, professor Kamola Oqilova o'z asarida XX asr boshidan XXI asr boshigacha bo'lgan o'zbek tasviriy san'atining asosiy bosqichlari, ijodiy izlanishlari va yutuqlarini batafsil yoritgan.<sup>1</sup>

Kamola Oqilova muallifligida 2023-yilda nashr etilgan **“Zamonaviylikdan postmodernizmga”** nomli maqolada globallashtirish sharoitida milliy identitetni saqlash masalasi asosiy ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqilgan. Mazkur tadqiqot ushbu maqolaning nazariy asoslarini shakllantiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Akbar Hakimov tomonidan yozilgan **“O'zbekiston san'ati tarixi: qadimiyat, o'rta asrlar, zamonaviylik”** nomli monografiya soha uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Unda O'zbekiston san'atining uzluksiz rivojlanish yo'li yoritilib, qadimiy naqsh va ornamentlarning zamonaviy ijodga ta'siri asoslab berilgan.

Xalqaro tadqiqotchilar orasida Rico Isaacs va Erika Marat muharrirligida 2021-yilda nashr etilgan **“Routledge qo'llanmasi: Zamonaviy Markaziy Osiyo”** asari alohida e'tiborga loyiqdir. Unda Markaziy Osiyodagi postsovet san'at manzarasiga bag'ishlangan

<sup>1</sup> Akilova, Kamola. Изобразительное искусство Узбекистана XX – начала XXI веков: основные этапы, творческие поиски и достижения

# “DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG’OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Iyun, 2026-yil

maxsus bob mavjud bo‘lib, sovet merosi, etnik an‘analar va global zamonaviylik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil etilgan. O‘zbek tasviriy san‘atining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Afrosiyob saroy devoriy rasmlari (VII asr) va Varaxsha qasri fresk bezaklari ushbu san‘atning qadimiy va boy tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi. Milliy naqsh san‘ati islamiy va g‘irih naqshlari O‘rta Osiyo tasviriy an‘anasining asosini tashkil etadi. R.Jabborov tadqiqotida ta‘kidlanganidek, har bir naqsh motivi chuqur ma‘no va ramziylikni ifodalaydi: spiral va to‘lqinsimon shakllar hayotning uzluksizligini, geometrik simmetriya esa olam tartibi va uyg‘unligini anglatadi.<sup>2</sup>

XX asr boshlarida Yevropa akademik rassomchiligi ta‘siri ostida shakllangan yangi avlod rassomlari mahalliy kolorit va Yevropa tasviriy texnikalarini uyg‘unlashtirgan o‘zbek rassomlik maktabiga asos soldilar.

O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov bu sintezning yorqin namunasidir. U miniatyura an‘analarini monumental freskalar bilan uyg‘unlashtirib, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Opera va Balet teatri foye bezaklarini yaratgan. O‘zbekiston xalq rassomi Ural Tansiqboyev esa o‘zbek tabiatini Yevropa impressionizmi ifoda vositalari orqali tasvirlashning dastlabki namunalarini yaratdi. Mustaqillik yillarida o‘zbek rassomlarida milliy merosga qaytish va uni qayta talqin etish tendensiyasi kuchaydi. Biroq bu jarayon oddiy taqlid emas, balki ijodiy yangilanish sifatida namoyon bo‘ldi. Kamola Oqilova ta‘kidlaganidek, ushbu davrda o‘zbek tasviriy san‘atida realizm, postimpressionizm, abstraktsiya va boshqa badiiy yo‘nalishlar parallel rivojlanib, rang-barang ijodiy manzara shakllandi.<sup>3</sup>

Zamonaviy o‘zbek tasviriy san‘ati bir qator yirik ijodkorlarni dunyoga tanitdi. Lekim Ibragimov O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi va Rossiya Badiiy akademiyasi faxriy a‘zosi sifatida tanilgan. Uning ijodi rassomlik, grafika va xattotlikni uyg‘unlashtirib, Sharq va G‘arb badiiy an‘analarini modernizm, ramziylik va abstraktsion yondashuvlar bilan birlashtiradi. Uning mashhur **“Ming farishta va bitta rasm”** (66 metr uzunlikda, 8 metr balandlikda) asari Afrosiyob va Varaxsha devoriy rasmlari an‘analaridan ilhomlanib yaratilgan bo‘lib, xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan monumental asar hisoblanadi.<sup>4</sup>

O‘zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalalov Sankt-Peterburgdagi Repin nomidagi Rassomlik instituti bitiruvchisi bo‘lib, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning etakchi monumental rassomlaridan biridir. Uning ijodi milliy madaniyat, tarix va ijtimoiy jarayonlar bilan chuqur bog‘liq bo‘lib, u turli texnikalarni uyg‘unlashtirgan holda an‘anaviy va zamonaviy badiiy ifodani birlashtiradi. O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo impressionizm va abstraktsiya uslublarini an‘anaviy o‘zbek naqshlari hamda miniatyura elementlari bilan uyg‘unlashtirib, milliy tabiat va hayotni o‘ziga xos badiiy til orqali tasvirlaydi. Yana bir yorqin rassomlardan biri Babur Ismoilov esa o‘z ijodini

<sup>2</sup> Jabbarov, R.R. (2022). Patterns in Applied Art of the Uzbek Folk. Progressive Publishing. <https://www.ppublishing.org/archive/publication/538>

<sup>3</sup> Akilova, Kamola. (2023). Contemporary fine arts of Uzbekistan: From realism to postmodernism. *InContext*, 3(1), 140-156. John Benjamins.

<sup>4</sup> ArtMajeur Gallery. (2024). Lekim Ibragimov — Artist profile. ArtMajeur. <https://www.artmajeur.com/lekim-ibragimov>

5-Iyun, 2026-yil

“**madaniyatlarning g‘aroyib sintezi**” sifatida ta’riflaydi. Uning “Ikki yuzlilik”, “Adashgan itning hikoyasi” kabi asarlarida Sharq va G‘arb badiiy kodlari uyg‘unlashgan. Rassom Babur Ismoilov “Artikul32” galereyasi asoschisi sifatida xalqaro ko‘rgazmalarda faol ishtirok etadi.

Miniatyura san’ati yo‘nalishida Buxorolik Davron Toshev alohida o‘rin egallaydi. U yoshligidan rassomlik bilan shug‘ullanib, 1990-yilda Toshkentda ustoz Xurshid Nazirov bilan uchrashgach, Buxoro miniatyura maktabini rivojlantirishga butun ijodiy faoliyatini bag‘ishlagan. Toshev asarlarida Alisher Navoiy ijodi asosiy ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. U Samarqand qog‘ozi va tabiiy bo‘yoqlardan foydalangan holda, uzoq vaqt davomida yaratiladigan nozik miniatyura asarlarini yaratadi. Uning ishlari Parij, Jeneva, Moskva va boshqa xalqaro markazlarda namoyish etilgan.<sup>5</sup>

#### **An’ana va zamonaviylikning uyg‘unlashuv shakllari**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atida an’ana va zamonaviylikning uyg‘unlashuvi bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi. **Birinchi shakl** — an’anaviy texnikani bevosita davom ettirish. Davron Toshevning Buxoro miniatyura maktabi an’analariga sodiqligi bunga yorqin misoldir. Bunda qadimiy usullar saqlanib qolgan holda, zamonaviy mavzular bilan boyitiladi. **Ikkinchi shakl** — an’anaviy elementlarni zamonaviy janrlarga ko‘chirish. Lekim Ibragimov monumental asarlarida qadimiy devoriy rassomlik an’analari zamonaviy yirik formatli san’at bilan uyg‘unlashadi. Bahodir Jalal ijodida esa milliy bezak va me’moriy ornamentika zamonaviy monumental san’atga singdiriladi. **Uchinchi shakl** — madaniyatlararo sintez. Babur Ismoilov ijodida Sharq ramzlari va G‘arb tasviriy tili uyg‘unlashadi. Alisher Mirzo asarlarida esa impressionizm va abstraktsiya milliy hayot va tabiatni ifodalash vositasiga aylanadi. 2025-yilda Toshkentda Zamonaviy San’at Markazi (CCA)ning ochilishi ushbu sintez jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur markaz O‘zbekiston San’at va Madaniyatni Rivojlantirish Jamg‘armasi huzurida faoliyat yuritib, mahalliy va xalqaro rassomlar o‘rtasidagi ijodiy almashinuvni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy an’ana va zamonaviylik uyg‘unligi uzluksiz va dinamik jarayon bo‘lib, u bir martalik echim sifatida talqin etilishi mumkin emas. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantiradi.

*Birinchiidan*, an’anaviy motivlarning zamonaviy badiiy tilda qayta talqin etilishi eng samarali ijodiy natijalarga olib keladi. Davron Toshev ijodidan tortib Lekim Ibragimov monumental asarlarigacha bo‘lgan misollar ushbu tamoyilning amaliy ifodasidir.

*Ikkinchiidan*, xalqaro ko‘rgazmalar va madaniy almashinuvlar o‘zbek rassomlariga milliy merosni yangi badiiy nigoh bilan qayta anglash imkonini bermoqda. Babur Ismoilov, Bahodir Jalal va boshqa rassomlarning xalqaro maydondagi faolligi bu jarayonni yanada kuchaytirmoqda.

*Uchinchidan*, 2025-yilda Toshkentda Zamonaviy San’at Markazi (CCA)ning ochilishi hamda Samarqandning UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog‘iga (2022) qo‘shilishi O‘zbekiston tasviriy san’atining institutsional rivojlanishini mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tasviriy san’ati o‘zining boy tarixiy-madaniy merosiga tayanib, zamonaviy badiiy tilni o‘zlashtirish orqali jahon san’ati makonida munosib o‘rin egallash uchun etarli salohiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akilova, Kamola. *Изобразительное искусство Узбекистана XX – начала XXI веков: основные этапы, творческие поиски и достижения* [O‘zbekiston tasviriy san’ati XX asr va XXI asr boshlarida: asosiy bosqichlar, ijodiy izlanishlar va yutuqlar]. Toshkent, 2021-yil.

2. Akilova, Kamola. (2023). Contemporary fine arts of Uzbekistan: From realism to postmodernism. *InContext*, 3(1), 140-156. John Benjamins. <https://doi.org/10.54754/incontext.v3i1.32>

3. Hakimov, Akbar Abdullayevich. (2022). *История искусств Узбекистана. Древность, Средневековье, современность*. Zilol Buloq Nashriyoti.

4. Isaacs, Rico; Marat, Erica (Eds.). (2021). *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia*. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429057977>

5. Jabbarov, R.R. (2022). *Patterns in Applied Art of the Uzbek Folk*. Progressive Publishing. <https://www.ppublishing.org/archive/publication/538>

6. Xayitboboeva, Xurshida. (2022). *Mustaqillik davri O‘zbekiston amaliy san’atida an’ana va innovatsiya*. Dissertaxz`tsiya ishi. Toshkent.

7. Tsay, Alexandra. (2021). Contemporary art in Central Asia. In R. Isaacs & E. Marat (Eds.), *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia* (pp. 351–364). Routledge.

8. Fatxullayev, R. (2021). *Manuscript book and miniature art of the East*. Tutorial. Toshkent: Lesson Press.

9. Artsy Editorial. (2024). Bakhodir Jalal — Biography. Artsy. <https://www.artsy.net/artist/bakhodir-jalal>

10. ArtMajeur Gallery. (2024). Lekim Ibragimov — Artist profile. ArtMajeur. <https://www.artmajeur.com/lekim-ibragimov>